ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA JAMIYAT VA SHAXS MUOMMOLARI.

Osiyo xalqaro universiteti o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti 1- bosqich magistranti Salimova Nilufar Nurmuhammad qizi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub hikoyalarida jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlar badiiy tahlil qilinadi. Adibaning qissa va hikoyalarida inson ruhiyati, ma’naviy iztiroblar, ijtimoiy tengsizlik, oilaviy muammolar hamda jamiyatning shaxs taqdiriga ta’siri masalalari yoritilgani tadqiq etiladi. Asarlardagi obrazlar orqali inson qadriyati, axloqiy tanlov va ijtimoiy muhitning shaxs kamolotidagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining badiiy mahorati, psixologik tasvir usullari hamda realistik yondashuvi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Zulfiya Qurolboy qizi ijodida jamiyat va shaxs muammolari zamonaviy o‘zbek adabiyotining muhim mavzularidan biri ekani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: jamiyat, shaxs, ma’naviyat, ruhiy kechinma, ijtimoiy muammo, badiiy obraz, realizm, psixologizm, o‘zbek adabiyoti.

Annotation: This article analyzes the complex relationship between society and the individual in the works of Zulfiya Kurolboy qizi. The author's stories and stories cover the issues of human psychology, spiritual suffering, social inequality, family problems, and the influence of society on the fate of the individual. The images in the works reveal the role of human values, moral choices, and the social environment in the development of the individual. The writer's artistic skills, methods of psychological depiction, and realistic approach are also analyzed on a scientific basis. As a result of the study, it is substantiated that the problems of society and the individual in the works of Zulfiya Kurolboy qizi are one of the important themes of modern Uzbek literature.

Keywords: society, individual, spirituality, spiritual experience, social problem, artistic image, realism, psychologism, Uzbek literature.

Аннотация: В данной статье анализируется сложная взаимосвязь общества и личности в произведениях Зульфии Курольбой кизи. Рассказы и истории автора затрагивают вопросы психологии человека, духовных страданий, социального неравенства, семейных проблем и влияния общества на судьбу личности. Образы в произведениях раскрывают роль человеческих ценностей, морального выбора и социальной среды в развитии личности. Научный анализ также включает в себя художественное мастерство автора, методы психологического изображения и реалистический подход. В результате исследования обосновывается, что проблемы общества и личности в произведениях Зульфии Курольбой кизи являются одной из важных тем современной узбекской литературы.

Ключевые слова: общество, личность, духовность, духовный опыт, социальная проблема, художественный образ, реализм, психологизм, узбекская литература.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida inson ruhiyati, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar hamda shaxsning ichki kechinmalarini badiiy talqin qilish muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mustaqillik davri nasrida inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni haqqoniy tasvirlashga bo‘lgan intilish yanada kuchaydi. Bu jarayonda Zulfiya Qurolboy qizi ijodi alohida o‘rin egallaydi. Adiba o‘z asarlarida inson qalbining nozik jihatlarini, jamiyat ta’sirida yuzaga keladigan ruhiy ziddiyatlarni hamda ma’naviy inqiroz masalalarini chuqur psixologik tasvir orqali yoritadi. Yozuvchining hikoya va qissalarida oddiy insonlar taqdiri markaziy o‘ringa qo‘yiladi. Asarlarda jamiyatdagi adolatsizlik, befarqlik, oilaviy muammolar, insoniy qadriyatlarning yemirilishi kabi masalalar hayotiy voqealar asosida ochib beriladi. Ayniqsa, shaxsning ichki dunyosi bilan tashqi ijtimoiy muhit o‘rtasidagi ziddiyatlar badiiy konfliktning asosini tashkil etadi. Shu jihatdan adiba qahramonlari ruhiy iztiroblari, kechinmalari va hayot sinovlari orqali o‘quvchini chuqur mushohadaga undaydi. Zulfiya Qurolboy qizi asarlarining yana bir muhim jihati shundaki, ularda inson qadr-qimmati va ma’naviy poklik masalasi yetakchi g‘oya sifatida namoyon

bo‘ladi. Adiba qahramonlari turli murakkab vaziyatlarda yashasalar-da, ularning qalbidagi ezgulik, mehr va insoniylik tuyg‘ulari asar mazmunining ta’sirchanligini oshiradi. Shu bilan birga, yozuvchi jamiyatdagi ayrim illatlar — loqaydlik, manfaatparastlik, ma’naviy tanazzul kabi holatlarni ham tanqidiy ruhda tasvirlaydi.Adibaning badiiy mahorati, ayniqsa, psixologik tasvir usullarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Muallif qahramon ruhiyatini ichki monolog, dialog, tasviriy vositalar va ramziy detallar orqali ochib beradi. Natijada asarlar nafaqat ijtimoiy, balki falsafiy-psixologik mazmun kasb etadi. Bu esa yozuvchi ijodining zamonaviy o‘zbek nasridagi o‘ziga xos o‘rnini belgilaydi. Adiba qalamiga mansub quyidagi asarlarda jamiyat va shaxs muommolari yaqqol namoyon bo‘ladi. Zulfiya Qurolboy qizining “Xoliq amaki” hikoyasi orqali jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, inson qadrsizlanishi, ma’naviy tanazzul hamda oddiy insonning fojeali qismati chuqur badiiy talqin etilgan. Asarda muallif shaxs va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni Xoliq amaki obrazi misolida ochib beradi.

Avvalo, hikoyada jamiyatning oddiy mehnatkash insonga bo‘lgan munosabati keskin tanqid qilinadi. Xoliq amaki umr bo‘yi qora mehnat bilan yashagan, halol va kamtar inson sifatida tasvirlanadi. Uning “huzur-halovat neligini bilmagan odam” ekanligi ta’kidlanishi orqali muallif jamiyatda eng ko‘p mehnat qilgan qatlamning eng ko‘p ezilishini ko‘rsatadi. Xoliq amakining avtobusda joy topolmay ezilib turishi, birgina “bobo” degan iliq murojaatdan quvonib ketishi uning mehr va e’tiborga naqadar tashna ekanini anglatadi. Bu holat insoniy munosabatlarning jamiyatda sustlashganini ifodalaydi.

Narziqul rais obrazi esa hukmronlik va mansab ortidan insoniylikni yo‘qotgan qatlam timsolidir. Raisning Xoliq amakining anorlarini yo‘lga sochib yuborishi oddiy voqea emas, balki kambag‘al insonning or-nomusi va mehnatini tahqirlash ramzidir. Muallif shu epizod orqali jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish va kuchlilarning zaiflarga nisbatan zulmini ochib beradi. Ayniqsa, raisning “Ko‘tar qopingni! Hoziroq dalaga jo‘na!” degan buyruq ohangi totalitar boshqaruv muhitini eslatadi. Bu yerda shaxsning erki va qadri mutlaqo mensilmaydi.

Hikoyada odamlarning loqaydligi ham muhim muammo sifatida tasvirlangan. Xoliq amakining o‘lim to‘shagidagi holati atrofdagilarni chuqur qayg‘uga solmaydi, aksincha, ko‘pchilik o‘z manfaatini o‘ylaydi. Kimdir sigirining tug‘ishini, yana kimdir uyidagi tashvishini o‘ylaydi. Norto‘xtaning “Hammamiz ham ishli, tashvishli odammiz” degan gapi jamiyatdagi ma’naviy yemirilishning yorqin dalilidir. Inson hayoti oddiy tashvishlardan ham arzimas darajaga tushib qolgan.

Asarda shaxsning ichki fojeasi ham kuchli ochilgan. Xoliq amaki butun umr jamiyatdan qo‘rqib, andisha qilib yashaydi. Uni haqorat qilishadi, urishadi, tahqirlashadi, ammo u qarshilik qilolmaydi. Bu holat mustabid muhitda yashagan inson ruhiyatining sinishini ko‘rsatadi. Ammo o‘lim oldida u barcha munosabatlardan yuz o‘giradi. Qarindoshlaridan rozi-rizolik so‘ramasligi, yuzini ters burib yotishi — uning ichki noroziligi va butun umr yig‘ilib kelgan alamining ramziy ifodasidir.

Muallif hikoya yakunida yanada dahshatli haqiqatni ochadi: qarindoshlar va qo‘shnilar “baribir o‘ladi-ku” degan fikr bilan uning o‘limini tezlashtirishga rozilik berishadi. Bu holat jamiyatdagi insonparvarlik tuyg‘ularining yemirilganini ko‘rsatadi. Inson qadri yo‘qolgan joyda mehr-oqibat ham, vijdon ham zaiflashadi. “Xoliq amaki” hikoyasi orqali muallif jamiyatdagi adolatsizlik, inson qadrining pasayishi, ma’naviy tanazzul va oddiy inson fojeasini ta’sirchan tasvirlaydi. Xoliq amaki obrazi jamiyat zulmi ostida ezilgan, ammo qalban pok va insoniyligini yo‘qotmagan shaxs timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub "Kuygan shahar" hikoyasida inson ruhiyati, jamiyatning befarqligi va shaxs fojeasi chuqur psixologik tasvirlar orqali ochib beriladi. Asar markazida xotirasini yo‘qotgan kampir obrazi turadi. Muallif uning taqdiri orqali nafaqat bir insonning ruhiy fojeasini, balki jamiyatdagi ma’naviy muammolarni ham yoritadi.

Hikoyada eng avvalo shaxsning ruhiy iztiroblari tasvirlangan. Kampir o‘tmishdagi dahshatli fojealar — uyining yonib ketishi, farzandlarining halok bo‘lishi, oilasining parchalanishi kabi og‘riqli voqealarni ko‘tara olmay, ruhiy muvozanatini yo‘qotadi.

Natijada uning xotirasi “bir lahzalik umr” bilan cheklanib qoladi. Bu holat inson ruhiyatining haddan tashqari azobga bardosh berolmasligini ko‘rsatadi. Doktorning “Telbalik ham insonni ko‘p azoblardan qutqaradi” degan fikri ham shuni anglatadi. Muallif ruhiy kasallikni oddiy jinnilik emas, balki hayotning og‘ir zarbalaridan himoya qiluvchi fojeali holat sifatida talqin qiladi.

Asarda jamiyatning ruhiy xastalikka munosabati ham tanqid qilinadi. Kampir atrofdagilar nazarida tushunarsiz, ortiqcha tashvish tug‘dirayotgan odamga aylanadi. O‘g‘li Akbar esa onasining kasalligidan charchagan, u bilan yashashni “aktyorlik”ka qiyoslaydi. “Men Akbarman, lekin Davron degan yigitning rolida chiqishim kerak” degan jumla shaxsiy fojeaning naqadar chuqurligini ochib beradi. Bu yerda insonning o‘zligini yo‘qotishi, o‘tmish soyasida yashashi muammosi ilgari surilgan.

Bundan tashqari, hikoyada avlodlar o‘rtasidagi ruhiy masofa ham ko‘rsatiladi. Akbar onasini yaxshi ko‘radi, uni tashlab qo‘ymaydi, ammo baribir ich-ichidan charchagan. Uning mehr va sabr o‘rtasidagi ichki kurashi juda tabiiy tasvirlangan. Juvon obrazi esa insoniylik va mehr timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. U kampirni tushunishga harakat qiladi, “Oyim idrok qila olmasligi mumkin, lekin xafa qilishganda ko‘ngillari og‘riydi” degan gaplari orqali ruhiy kasal inson ham tuyg‘uga ega ekanini eslatadi.Hikoyada jamiyatning yolg‘izlik muammosi ham muhim o‘rin tutadi. Kampir “hududsiz zulmat ichida yashardi” degan tasvir uning nafaqat xotirasiz, balki mehrsiz va tayanchsiz qolganini bildiradi. U eski uyiga qayta-qayta boradi, chunki xotira insonning yagona ruhiy tayanchi hisoblanadi. Ammo endi o‘sha uy ham begonalashgan. Muallif “xotiralar yonmaydi” degan tasvir orqali inson qalbidagi og‘riqlar vaqt o‘tishi bilan ham yo‘qolmasligini ko‘rsatadi.

Asar yakunidagi kampirning g‘oyib bo‘lishi ramziy ma’noga ega. U faqat jismonan emas, balki jamiyat xotirasidan ham o‘chib ketgandek tasvirlanadi. “Kampir yo‘qolgan xotirasi singari izsiz yo‘qolgandi” degan jumla insonning ruhiy va ma’naviy yo‘qolishini chuqur falsafiy mazmunda ifodalaydi. Hikoyada jamiyat va shaxs muammolari ruhiy fojea, yolg‘izlik, xotira, mehr yetishmasligi va insoniylikning zaiflashuvi orqali ochib berilgan. Muallif inson qalbining eng nozik

jihatlarini tasvirlash orqali kitobxonni jamiyatdagi ruhiy va ma’naviy muammolar haqida chuqur o‘ylashga undaydi.Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida shaxs va jamiyat muammolari o‘ziga xos badiiy-uslubiy mahorat bilan yoritilgan. Adiba asarlarida oddiy inson taqdiri orqali jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, ma’naviy tanazzul, inson qadrsizlanishi, ruhiy yolg‘izlik va mehr-oqibatning susayishi kabi dolzarb muammolar ochib beriladi. Muallif ko‘proq jamiyatning e’tiboridan chetda qolgan, dardini ichiga yutib yashaydigan insonlar obrazini tasvirlash orqali inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ko‘rsatishga intiladi.

Yozuvchi qahramonlari, asosan, hayotning og‘ir sinovlari ostida ezilgan, biroq qalban pok va halol insonlardir. Xoliq amaki, xotirasini yo‘qotgan kampir singari obrazlar orqali insonning jamiyatdagi o‘rni, uning qadr-qimmati va ruhiy kechinmalari chuqur ochiladi. Bu qahramonlar jamiyatdagi befarqlik, zo‘ravonlik, loqaydlik va adolatsizlik qurboni sifatida gavdalanadi. Ayniqsa, insoniy mehr va e’tiborning yetishmasligi ularning fojeasini yanada kuchaytiradi. Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarining yana bir muhim jihati shundaki, muallif jamiyatdagi muammolarni faqat tashqi voqelik orqali emas, balki inson ruhiyati orqali tasvirlaydi. Ruhiy iztirob, qo‘rquv, yolg‘izlik, xotira va armon motivlari asarlarning g‘oyaviy asosini tashkil etadi. Shu sababli adiba hikoyalari nafaqat ijtimoiy, balki chuqur psixologik mazmunga ham ega.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari inson va jamiyat munosabatlarini haqqoniy va ta’sirchan aks ettirgan badiiy asarlar hisoblanadi. Adiba oddiy inson qalbidagi og‘riqlarni tasvirlash orqali kitobxonni jamiyatdagi ma’naviy muammolar, inson qadrini anglash va mehr-oqibatning ahamiyati haqida chuqur mushohada yuritishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Zulfiya Qurolboy qizi. Yovuzlik farishtasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.

2.Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.

3.Zulfiya Qurolboy qizi. Turmush (hikoyalar). – Toshkent, 2003.

UzPedia.

4.M. Jo‘rayeva. “Zulfiya Qurolboy qizining obraz yaratish mahorati”. “Ilmiy xabarnoma”, ADU, №4, 2018.

5.Ziyo.uz